

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**3-2025
FILOLOGIYA**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

ADABIYOTSHUNOSLIK

Sh.Amil, A.G.Sabirdinov	
XX asr o'zbek lirikasi va Oybek she'riyati	6
N.P.Farmonov	
Realistik va psixologik tasvir: "Girdob" romani qahramonlari misolida	14
N.A.Abdullayeva	
Gender leksik birliklarining lingvomadaniy ko'rinishlari	18
A.Eshniyazova	
Muallif konsepsiyasining ilmiy-nazariy asoslari.....	22
Z.Q.Eshanova	
Istiqlol davri o'zbek she'riyatida xalq dostonlari sintezi	27
J.B.Sayidolimov, I.B.Xabibullayev	
"Qisasi rabg'uziy" ning struktur tuzilishi	33
I.B.Xabibullayev	
Badiiy adabiyotda oila mavzusining shakllanishi va rivoji	42
E.G'.Qurbonova	
Lutfiy lirikasida badiiy mazmun va irfoniy talqin uyg'unligi	47
U.S.Ochilov	
Stiven Kingning «It» va «Green mile» romanlarida magik realizmning badiiy talqini.....	52
G.M.Kirgizova	
Iqbol Mirzo she'rlarida band tizimlari	58
N.N.Sharipova	
Xamsanavislik an'anasi va unda Toshlija Yahyobey "Gulshan ul-anvor" dostonining o'rni	63
S.A.Olimjonov	
"Uch og'ayni" romanida "yo'qotilgan avlod" tasviri	69
I.M.Jurayev, H.A.Jo'rayev	
"Temur tuzuklari" hamda "Boburnoma"da an'ana va vorisiylik.....	74

TILSHUNOSLIK

Sh.M.Iskandarova, K.T.Israilova	
Ijtimoiy tarmoqlar tilini lingvistik o'rganishning nazariy asoslari.....	79
Sh.Sh.Uralova	
Ingliz va o'zbek tillarida oshxona anjomlari nomlarining suffikslar yordamida hosil bo'lishi va ularning so'z yasash modellari.....	83
I.F.Porubay, F.R.Nishanova	
Zamonaviy global jamiyat sharoitlarida lingvomadaniy birliklarning rivojlanish omillarining tahlili...	90
M.S.Sayidazimova	
O'zbek va ingliz tillaridagi fe'lining bo'lishsizlik shaklini yasovchi ayrim vositalar	96
X.G'.Raximboyeva, M.G'.Matlatipova	
O'zbek tili iyerarxik korpusini yaratishda ma'lumotlar bazasini yig'ish, gaplarni annotatsiyalash va tokenlash jarayoni.....	100
Л.Мамедзаде	
Приемы рифмообразования в паремиологических единицах турецкого и азербайджанского языков.....	107
N.A.To'xtasinova	
Pretsedent nom, jumla va matnlarning mediamatn birliklari sifatidagi tadqiqi	113
Z.I.Akbarova	
Alisher Navoiy asarlarida keltirilgan "Ahl" komponentli lug'aviy birliklarning nutq uslublari doirasida qo'llanilishi	118
Ё.М.Алтишева	
Из истории изучения религиозных терминов в отечественной терминологии	121



UO'K: 82-1/-9.159.9:316.3

BADIIY ADABIYOTDA OILA MAVZUSINING SHAKLLANISHI VA RIVOJI**FORMATION AND DEVELOPMENT OF A FAMILY THEME IN FICTION****СТАНОВЛЕНИЕ И РАЗВИТИЕ ТЕМЫ СЕМЬИ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ****Xabibullayev Ilhombek Bahromjon o'g'li** 

Farg'ona davlat universiteti, filologiya fakulteti adabiyotshunoslik kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek adabiyotida oila mavzusining genezisi, rivoji tadrijiy takomili, oila tasvirining eng qadimgi yozma yodgorliklar, Qur'on va hadislar, xalq og'zaki ijodidan tortib hozirgi adabiy jarayonda aks ettirilishi misollar bilan tahlilga tortilgan. Tadqiqot mavzusini yoritishda psixologik, qiyosiy-tipologik, struktural, hermenevtik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Abstract

This article analyzes the genesis and gradual development of the theme of family in Uzbek literature. It examines how the image of the family has been reflected from the earliest written monuments, the Qur'an and Hadith, and folk oral creativity to its current representation in the contemporary literary process. The analysis is supported by examples. The research employs psychological, comparative-typological, structural, and hermeneutic methods of analysis.

Аннотация

В данной статье анализируются генезис и постепенное развитие темы семьи в узбекской литературе. Рассматривается, как образ семьи отражался начиная от древнейших письменных памятников, Корана и хадисов, устного народного творчества и до его современного проявления в текущем литературном процессе. Анализ подкреплён примерами. В исследовании использовались методы психологического, сравнительно-типологического, структурного и герменевтического анализа.

Kalit so'zlar: oila psixologiyasi, genezis, xonadon tasviri, mentalitet, konsept, ona, ayol obrazi, oilaviy qadriyatlar.

Key words: Family Psychology, Genesis, household image, mentality, concept, mother, female image, Family Values.

Ключевые слова: Семейная психология, Генезис, образ семьи, менталитет, понятие, образ матери, женщины, семейные ценности.

KIRISH

O'zbek adabiyotida oila tasvirining shakllanishi va rivoji uzun tarixiy jarayonni o'z ichiga oladi. Oila va uning ichki aloqalari o'zbek adabiyotining turli davrlarida muhim mavzu bo'lib kelgan, va bu tasvirlar yozuvchilarning ijtimoiy, madaniy, psixologik va tarixiy o'zgarishlarda oilaning o'rnini ko'rsatadi. Oila tasviri o'zbek adabiyotida har bir davrda turlicha ifodalangan, bu o'zgarishlar o'zbek jamiyatining ijtimoiy va psixologik o'zgarishlarini aks ettiradi.

Har qanday badiiy asarda oila, xonadon tasvirining o'zni alohida ahamiyat kasb etadi. Badiiy asardagi oila tasviri o'quvchiga poetik axborot tashish vazifasini bajaradi. Ya'ni asar qahramonlarining xarakteri, ma'naviy olami, mentaliteti haqida o'quvchiga bayon qilsa bundan tashqari asar voqealari yuz bergan makon, zamon haqida ham ma'lumot beradi. Shuning uchun ham dastlabki adabiy yodgorliklardan boshlab badiiy asarda oila tasviri, oila psixologiyasi yetakchi o'rinda bo'lib kelgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

XIX asrdan boshlab rus adabiyotida oila psixologiyasi, oilaviy munosabatlarga alohida ahamiyat berila boshlagan badiiy asarda oila konsepti yuqori o'ringa chiqqan bugunga kelib rus adabiyotshunosligida oilaviy munosabatlarning badiiy talqini yuzasidan tadqiqotlar Y.Lebedev, M.Kulabuxova, Y.S. Pavlova, I. Melnik, Y. Kulinchenko, T. Kondrashova, N. Komar kabi rus adabiyotshunoslar tomonidan mazkur masala tadqiq etilgan.

ADABIYOTSHUNOSLIK

O'zbek adabiyotshunosligida oila, oila psixologiyasi XX asrning o'rtalaridan tadqiq etila boshlandi. Aynan oila psixologiyasiga murojaat qilingan ishlar bo'lmasa, ham oilaviy munosabatlarga yoki milliylik, umuminsoniylik, milliy xarakterga to'xtalganda, albatta, oila mavzusiga murojaat qilingan. Masalan, o'zbek adabiyotida ona, ayol obrazi, ota va farzand, ona va farzand munosabatlari kabi masalalar tadqiq qilinganda, albatta, bu jarayonlar o'zaro oilaviy munosabatlar bilan bog'lanadi. Y.Solijonov, M.Qo'shjonov, A.Qosimov, M.Sultonova, M.Javbo'riyev, O.Duysenbayev, F.Kiyikbayev, S.Babayeva, A.Qayumov, G.Muhammadjonova, R.Umurzakov, Sh.Aripov, S.Sultansaidova, G.Qurbonova, Q.Qobiljonov, M.Imomkarimova, I.Jo'rayev singari o'zbek tadqiqotchilarining ishlarida mazkur masala qisman tadqiq etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Umuman oila tasviri dastlab eng qadimgi adabiy yodgorliklardan bo'lgan "Avesto" da uchraydi. Unda oila eng muqaddas dargoh ekanligi, oilaning mustahkam bo'lishi uchun er va xotinning mas'ulligi, farzand tarbiyasida oilaning o'rni kabi masalalarga to'xtalgan. Oilaning tinch va farovon bo'lishi nimalarga bog'liq ekanligi haqida esa: "Porso, inson uy tiklab, olovga, oilasiga, xotin va farzandlariga o'rin ajratib bersa, uyida noz - ne'matlari muhayyo bo'lib, xotin va farzandlari farovon yashasa, uyida e'tiqod, sobit olovi alangali, bo'shqa narsalari ham mo'l-ko'l bo'lsa, o'sha manzil muhtaramdir" [4], — deb yozilgan. Bu kitobda oilada ota yetakchi bo'lgani yaxshiligi, oilada mas'uliyat teng taqsimlanishi kerakligi haqida aytiladi. Shuningdek, er va xotin bir-biriga sodiq, g'amxo'r bo'lishi kerakligi, ayollarning hurmati joyiga qo'yilish zarurligi, ayollarning haq-huquqlarini himoya qilish o'sha zamonlardan dolzarb bo'lib kelganligini haqida ma'lumot beriladi.

Xalq donishmandlarining oila tasviri, oila muammosi va tarbiyasi haqidagi qarashlari juda uzoq tarixiy ildizga egadir. Xalq og'zaki va yozma yodgorliklarida: maqol, hikmat, ertak, aytishuvlarda oila, ota –ona, oilaviy barqarorlik, o'zaro munosabat, oila psixologiyasi masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Oila – qo'sh ustunli ayvon.

Ota – aql, ona – idrok,

Ota – bilak, ona – yurak [20] kabi o'zbek xalq maqollarida oila tasviri haqidagi dastlabki tasvirlar uchraydi.

Maqollardagi donolik bola tarbiyasida ota-onaning tasirini mustahkamlaydi. Bolalar uchun ota-onaga roziligini olishga intilish – psixologik jihatdan "rag'batlantiruvchi omil" sanaladi, bu esa ularni intizomli va mas'uliyatli bo'lishga chorlaydi. Masalan, bolaning ota-onaga hurmat bilan munosabatda bo'lish istagi, oilaviy qadriyatlarni hurmat qilish kabi tarbiyaviy jihatlari bola shaxsining shakllanishiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi"[14].

Oilada bolalarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashda qo'llaniladigan eng xarakterli usullardan biri, hal qilinishi kerak bo'lgan muammoni xalq donishmandligining axloq va odob yuzasidan aytiladigan hikmatli so'zlari, maqollari, ertaklari orqali dalillashidir. Aniqrog'i axloq-odob masalalariga bag'ishlangan xalq maqollarining naqadar hayotiy ekanligini ma'lum bir ertak, rivoyatlar orqali aytib berilishidir. Ko'pchilik ertak va dostonlarda ota-onalarning hayotiy tajribasi farzandlarga pand-nasihat ko'rinishida singdiriladi. Masalan, "Uch og'a-ini botirlar" ertagida otaning farzandlariga qilgan nasihati "To'g'ri bo'ling – bexavotir bo'lasiz. Maqtanchiq bo'lmang – xijolat tortmaysiz. Dangasalik qilmang – baxtsiz bo'lmaysiz" bugungi kunda ham o'z qiymatini yo'qotmagan. O'zbek xalq dostonlarida, xususan, eng mashhur "Alpomish" dostoni hamda Go'ro'g'li turkumidagi dostonlarda oila tasviri yetakchilik qilib, ularda oilaning mustahkamligi ota-onaga hurmat, farzand ko'rish hamda uni har tomondan mukammal qilib tarbiyalashga asoslanishi, nikoh tuzish sovcilik an'analari bo'yicha amalga oshirilishiga alohida urg'u beriladi.

Islom dinining muqaddas kitobi Qur'on va hadislarida ham oila qurish, nikoh va muhabbat, farzand tarbiyasi kabi masalalarga alohida ahamiyat berilgan. "Oilaviy hayotning va er-xotinning bir-birlariga nisbatan bo'ladigan munosabatlarini sifatlashda Qur'oni Karimda kelgan bayonotlar ayni mo'jizadir"[21]. Umuman oila tushunchasining kelib chiqishi, Odamning yaratilishi bilan belgilanadi. Ya'ni Alloh insonlarni juft-juft qilib yaratar ekan bu jarayonni oila deb ataydi. "Oila va uning baxti, saodati haqida so'z yuritishdan oldin insonning yaratilishidan ko'zlangan maqsadlarga nazar solish, ayniqsa, nima uchun inson erkak va ayol qilib, juft qilib yaratildi, degan savollarga javob axtarish lozim bo'ladi. Shu ma'noda Qur'oni Karimga yuzlansak, unda insonning juft qilib yaratilishi haqida bir qancha oyatlar nozil bo'lganini ko'ramiz. "Fotir" surasida Alloh taolo shunday

deb marhamat qiladi: "Alloh sizlarni tuproqdan, so'ngra nutfadan yaratib, keyin juft-juft qilib qo'ydi" (11-oyat)"[21] yuqorida keltirilgan namunalardan ko'rinadiki, Qur'oni Karimda ham oila haqida, uning muqaddas qadriyat sifatidagi mohiyati alohida e'tiborlidir.

Agar oila tushunchasi xalq eposlari, diniy risolalarda og'izdan og'izga, avloddan avlodga o'tib kelgan bo'lsa, oila tasviri buyuk mutafakkirlar Abu Nasr Forobiy,[3] Abu Rayhon Beruniy,[6] Abu Ali ibn Sino,[9] Yusuf Xos Hojib,[17] Mahmud Qoshg'ariy,[11] Kaykovus,[10] Alisher Navoiy,[5] Zahiriddin Muhammad Bobur,[18] Muqimiy,[12] Furqat,[8] Zavqiy,[19] Uvaysiy,[16] Nodira,[13] Abdurauf Fitrat,[7] Abdulla Avloniylarning[2] asarlarida ham uchraydi. Bu mutafakkirlarni g'oyaviy jihatdan birlashtirgan narsa ularning barchasi shaxs tarbiyasi va kamolotida oilaning va oilaviy tarbiyaning o'rnini yuqori qo'yishganidadir. Shaxsning aqliy va axloqiy shakllanishida oilaning o'rnini, faqat oiladagina shakllanishi mumkin bo'lgan sifatlar – rostgo'ylik, halollik, mehribonlik, mardlik kabi fazilatlarni alohida e'tirof etadilar. Bu mutafakkirlar oila tasviri haqida fikr yuritir ekan, ularning asosiy qismini farzand tarbiyasi haqida bo'lib, oilaning tarbiya o'chog'i ekanligini alohida ta'kidlaydilar.

Abu Rayhon Beruniy insonni axloqiy fazilatlarini, umuman axloq-odob masalalarini insonning tabiati bilan bog'laydi. Inson tabiati esa oilada shakllanadi. Demak, bola tarbiyasi uchun ota-onaning ta'siri nihoyatda katta ekanligini aytadi. Beruniy tan va ruh pokligini o'rtaga tashlaydi. Oilada tozalik, poklik va tartib mavjud ekan, u yerda ma'naviy poklik ham bo'ladi.

Oilada tasviri masalasi Abu Ali Ibn Sinoning ilmiy merosida ham muhim o'rin egallaydi. Uning "Tadbiri al-manozil" asarining katta bir bobi oila va oilaviy tarbiya masalalariga bag'ishlangan. Ibn Sino oila mustahkamligi, bola tarbiyasi uchun oilada otaning mas'uliyatiga alohida e'tibor beradi. "Agar oilada – deydi u, oila boshlig'i tajribasizlik, no'noqlik qilsa u oila a'zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi va oqibatda bundan yomon natijalar kelib chiqishi mumkin"[9]. Oilaning eng muhim vazifasi bu farzand tarbiyasidir – deydi, Ibn Sino, va bu jarayonda ota-onaning shaxsiy namuna bo'lishi alohida ahamiyatga egaligini ta'kidlaydi.

Didaktik adabiyotimizning yorqin vakillaridan bo'lgan Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u bilig" asarida oila tasviriga alohida ahamiyat beradi. Asarda oila tasviri jarayonlarida mutafakkir bola tarbiyasi, oila mustahkamligida otaning o'rnini, mas'uliyati alohida e'tibor qaratadi. Ilm olish insonni to'g'ri yo'lga yo'naltirish oiladan boshlanishini, farzand tarbiyasi juda murakkab jarayon ekanligini uqtiradi. U beldan madorni, tandan quvvatni, ko'zdan nurni, dildan oromni talab qiladi. Ya'ni farzand tarbiyasi dunyoda eng mas'uliyatli hamda xato qilish mumkin bo'lmagan jarayon ekanligini juda chiroyli ta'riflaydi. "Farzand qanchalik bilimli, aqlli- xushli bo'lsa ota-onasining yuzi shunchalik yorug' bo'ladi"... "Ota bolalarini nazorat qilib, turli hunarlarni o'rgatsa, ular uyg'aygach, o'g'il-qizim bor deb sevinadi; o'g'il-qizga hunar va bilim o'rgatish kerak, toki bu hunar bilan ularning fe'l-atvorlari go'zal bo'ladi"[17] Yusuf Xos Hojib oila tasvirida yuqoridagi fikrlarni o'rtaga tashlaydi.

Sharqning mashhur mutafakkirlaridan Kaykovus o'zining "Qobusnoma" falsafiy didaktik asarida, asosan, oila tasviri, oilaviy munosabatlar, farzand tarbiyasi kabi masalalar aks etgan. Uning "Farzand parvarish qilmoq zikrida" degan bobi farzand tarbiya qilish san'ati haqida nodir manbaadir. Unga ko'ra bola tarbiyasida mehribonlik va talabchanlikni birga olib borish kerakligini ta'kidlaydi. "Yosh bola ilm bilan odobni tayoq bilan o'rganur, o'z ixtiyori bilan o'rganmas. Ammo farzand beadab bo'lsa va sening ul sababdan qahrining kelsa, o'z qo'ling bilan urmagil, muallimlarning tayog'i bilan qo'rqitgil. Bolalarga muallimlar adab bersinlar, toki sendan o'g'lingni ko'nglida gina qolmasin"[10]. "Qobusnoma" bugungi kunda ham yosh avlodni ma'naviy axloqiy ruhda tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega asardir.

Odob-axloq, inson ma'naviyati, sevgi-muhabbat, barkamol shaxs tarbiyasi haqidagi takrorlanmas fikrlar egasi bo'lgan Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" risolasining "Uylanish va xotinlar to'g'risida"[5] deb nomlangan bobida oila qurish va uning foydasi, oilaviy munosabatlar, oilada ayol kishining o'rnini kabi masalalarga alohida to'xtaladi. Buyuk alloma oilaviy baxtda sevgi va muhabbatning o'rnini, har bir oila qurayotgan shaxs albatta oilaga mas'uliyat bilan yondashmogliki kerakligi haqida ta'kidlaydi. Oiladagi ayrim illatlarni kelishmovchiliklarni, farzand tarbiyasiga salbiy ta'siri, oilaning buzilishiga sabab bo'ladigan asosiy omillar haqida yozadi.

Qadimdan Turkiston ya'ni turkiy xalqlarda oila psixologiyasi, turmush tarzidagi o'zgachalik, o'zbek ayollarining ibo-hayosi, oilada o'zini tutishi kabi masalalar ko'plab tadqiqotchilarni qiziqtirib kelgan. XIX asrning 70-yillarida etnograf, fransuz olimasi Burdon xonim turkiy xalqlar o'rtasida

ADABIYOTSHUNOSLIK

tadqiqot olib borgan, olimlar bu xalqlarning hayot tarzi bilan tanishish jarayonida o'zbek ayollarining odobi, oilada, to'y-marosimda, qo'shnilar bilan munosabatda o'zini tutishi, sharm-hayosini ko'rib hayratga tushadi. "Biz, – deb yozadi olimlar, – madaniylashgan Ovro'pa ayollari axloq-odobni, iffatni bizning nazarimizda yovvoyi hisoblangan turkistonlik ayollardan o'rganmog'imiz joiz ekan... Lesgaft, Didro nazariyalaridan mutlaqo bexabar u ayollar axloq nazariyasidan qo'llanma yozsalar arzir ekan..." [22] deya ta'kidlaydi.

Oila tasvirini davlat rahbarlarining asarlarida ham uchratishimiz mumkin. Sohibqiron Amir Temur o'z tuzuklarida oila haqida mulohazalar berganda shunday yozadi: "Kelin izlamoqqa e'tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko'rdim. Kelin bo'lmishning nasl-nasabini, yetti pushtini surishtirdim... sog'liq... jismonan kamolotini aniqladim... barcha qusurlardan holi bo'lsagina... kelin tushurdim"[15]. Bu so'zlar bilan Amir Temur o'z naslining qonini toza saqlash uni aynishga yo'l qo'ymaslik uchun oila qurish masalasini davlat ishi bilan teng ko'rganini aytadi. Zero, qondagi, ruhdagi aynish – millatning ming yillik qadriyatlarini nobud qilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov oilaning jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati to'g'risida shunday deydi: "Bola tug'ilgan boshlab, oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi his qiladi"[1]. I.Karimov tashabbuslari bilan 1998-yil "Oila" yili deb e'lon qilindi. Oila jamiyatimizdagi eng kichik birlikdir, lekin u ijtimoiy munosabatlarni saqlashning eng muhim bo'g'inidir. Agar oilada muammo bo'lsa, unda muqarrar ravishda jamiyatda ham muammo bo'ladi.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tavalludining 61 yilligi munosabati bilan 2018-yil 24-iyul kuni "Janob Prezident" nomli hujjatli film namoyish qilindi. Unda Shavkat Mirziyoyev – oila va baxt haqidagi qarashlarini gapirib berdi. "Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor qayerda ishlashidan qat'i nazar, kim bo'lishidan qat'i nazar agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e'tibor bermasa, hech qachon natija bo'lmaydi. Shuning uchun men farzandlarimning tarbiyasiga juda katta e'tibor beraman. Har bir farzandimga ham, nabiramga ham alohida o'zimning munosabatim bor. Har bir nabiramning alohida harakterini bilaman, orzusini, istagini bilaman"[24]. Yoki bo'lmasa, Surxondaryo viloyatida bo'lib o'tgan videoselektirda oila haqidagi fikrlarini olaylik; "Eng katta baxt, men buni ming marta qaytarishdan charchamayman, oilamiz tinch bo'lsin! Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi. O'sha baxtli kunlarni, vatanimizning, yoshlarimizning kamolini hozir niyat qilayotganimiz kabi ko'rish hammamizga nasib etsin!"[23] — deya ta'kidlaydi, Prezidentimiz.

XULOSA

O'zbek adabiyotida oila tasviri shakllanishi va rivoji jamiyatdagi o'zgarishlar bilan uzviy bog'liqdir. Har bir davrda yozuvchilar oila va a'zolarining ruhiy holati, o'zaro aloqalari, mas'uliyatlari va qadriyatlarining qanday shakllanganini va jamiyatga qanday ta'sir ko'rsatganini o'z asarlarida yoritib kelishgan. O'zbek adabiyotidagi oila tasviri, ayniqsa, oilaviy munosabatlarning ijtimoiy ahamiyati, ruhiy va psixologik tomonlari muhim mavzulardan biri bo'lib qoladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevoridir, – Toshkent, Sharq, 1997, B.-31
2. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq, – Toshkent., O'qituvchi, 1992
3. Abu Nasr Forobiy. Baxt-saodatga erishuv haqida. Risolalar. -T.: «Fan», 1975
4. Avesto: Yasht kitobi. M.Is'hoqov tarjimasi. – T.: «Sharq», 2001. –B.31.
5. Alisher Navoiy Mahbub ul-qulub, – Toshkent, 2018.
6. Беруний Минерология, – Т., 1966. Б-10
7. Fitrat. Oila. –Toshkent: Ma'naviyat, 1998.
8. Furqat. Asarlar majmuasi. Ikki jildlik. – Toshkent, 1990.
9. Ибн Сино Тадбири манзил, – Техрон, 1939. Б-44
10. Kaykovus Qobusnoma –T., Yangi asr avlodi, 2019
11. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otut turk. 3 jildlik – Toshkent, 1963
12. Muqimiy. Tanlangan asarlar – Toshkent, 2011
13. Nodira. Devon. –Toshkent, 1992
14. Olimova D. Ota-ona haqidagi maqollarni psixologik tahlil qilish, ta'lim va rivojlanish tahlili online ilmiy jurnal. 2024, № 4. B.-252-255
15. Темур тузуклари Алихон Соғуний ва Кароматов Ҳ.лар таржимаси, – Тошкент, Фафур Фулом, 1991, Б.-72
16. Uvaysiy. Devon. –Toshkent, 1963

17. Yusuf Xos Hojib Qutadg'u bilig, – Toshkent: Cho'lpon, 2007.
18. Zahiriddin Muhammad Bobur Boburnoma, – T., 1948
19. Zavqiy. Tanlangan asarlar. – T.: O'zbekiston davlat badiiy adabiyot nashri- yoti, 1960
20. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent Sharq, 2005. B-63
21. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф Бахтиёр оила, – Тошкент, 2016. Б-246.
22. Shoumarov G'.B. Oila psixologiyasi, – Toshkent, Sharq, 2008, B.-26
23. <https://www.gazeta.uz/oz/2018/07/25/prezident/> 24.01.2022. 20:01
24. <https://www.xabar.uz/uz/siyosat/prezident-oila-kichik-vatan> 24.01.2022. 23:22